

**QORAMOLLARDA TUBERKULOZ KASALLIGIDA OLINADIGAN  
MAXSULOTLARNING VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI**

*Do'skulov V.M.,  
Ibragimov F. M.,  
Mamadullaev G.X.*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tuberkulyoz bilan kasallangan hayvonlardan olinadigan maxsulotlarni veterinariya sanitariya ekspertiza jixatdan baxolash to'g'risida adabiyotlar sharhi bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Bovines, humanus, produktiv, Sil-Nilsen, fibrinli flotatsiya.

**Аннотация.** В данной статье проведена обзор литературных данных по оценке ветеринарно-санитарной экспертизы продуктов, полученных от зараженных животных от туберкулеза.

**Ключевая слова:** Bovines, humanus, produktiv, Sil-Nilsen, фибринолитическая флотация.

**Abstract.** This article reviews the literature data on the evaluation of veterinary and sanitary examination of products obtained from infected animals from tuberculosis.

**Keywords:** Bovines, humanus, produktiv, Sil-Nilsen, fibrinolytic flotation

**Kirish.** Respublikamiz axolisiga sifatli go'sht va sut maxsulotlari yetkazib berish xamda dexqon bozorlarini jamoat salomatligi uchun xavsiz oziq ovqat maxsulotlari bilan boyitish bugungi kunda muxim iqtisodiy va siyosiy masala deb qaralmoqda. Shuning yaqqol misoli sifatida O'zbekiston xududlarida ishlab chiqarilayotgan go'sht va go'sht maxsulotlariga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda, bu talablarni qondirishda qishloq xo'jaligining muxim tarmoqlaridan biri bo'lgan chorvachilikning ahamiyati katta. Xususan Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 14-aprel kuni global inqiroz va pandemiya sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jaligi oldida turgan dolzarb vazifalar muxokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazdi. Unda 2020-yil 1-sentabrgacha 7 ta xududida qoramol boqish bo'yicha 74 ta oilaviy korparatsiya faoliyati to'liq yo'lga qo'yilishi to'g'risida ko'rsatma berdi. O'zbekiston Respublikasining axolini sil kasalligidan muxofaza qilish (215 -2-son 11.05.2001) to'g'risidagi qonunida sil kasalligiga noqulay bo'lgan chorvachilik obyektlardagi hayvonlar belgilangan tartibda faqat go'sht kombinatlarida va kushxonalarda so'yilishi kerakligi takidlab o'tilgan. Sil kasalligidan o'lgan hayvonlarni, shuningdek ularning zararlangan a'zolari, to'qimalari va tanalarini utiliztsiya qilish qonun hujjatlariga muofiq amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan qoramollardan insonlarga yuqadigan yuqumli kasalliklar xususan tuberkuloz kasalligi xususiyatlarini o'rganish va kasallangan hayvonlardan olinadigan maxsulotlarning veterinariya sanitariya ekspertiza usullarini takomillashtirib, axoliga sifatli go'sh yetkazib berish muxim vazifa sanaladi.

Sil kasalligi odamlar va hayvonlar uchun havfli bo'lgan surunkali yuqumli kasallik bo'lib, qo'zg'atuvchisi **Mycobacterium tuberculosis** aerob, ingichka tayoqcha ko'rinishida 0.8-5.5 mkm kattalikda, fizikaviy va kimyoviy omillarga chidamli hisoblanadi [3].

*Mycobacterium tuberculosis* ning 3 tipi farqlanadi: Odam tipi-humanus, qoramol tipi-bovinus, parranda tipi-avinus. Bu mikroblar pishloqda ikki oydan oshiqroq, sariyog'da 100 kungacha, agar yog' sovuqlikda saqlansa, 10 oygacha, muzlatilgan yog'da 6 yildan oshiqroq saqlanishi mumkin. Sutning tarkibida sil tayoqchasi 9-10 kun saqlanadi. Mikroblarga sovuqlik tasir etmaydi, aksincha, yuqori haroratda tezda halok bo'ladi. Suyuq muhitda harorat 60° bo'lganda, 30 daqiqa mobaynida halok bo'ladi. Sil kasalligining mikroblari kislotalarning ta'siriga juda chidamli, shuning uchun achigan sutning tarkibida o'zining kasallik chaqarishini yo'qotmasdan 20 kungacha saqlanishi mumkin.[1]

Organ va to'qimalarni tuberkulyoz (sil) bilan jarohatlanishi 2 xil ya'ni; produktiv yoki eksudativ formalarda kechadi. Kasallikning produktiv formasi quyidagilar bilan harakterlanadi: ya'ni organ va to'qimalarda tugunchalar yoki tuberkulalar hosil bo'ladi. Tugunlarni hosil bo'lishida, boshida yarim yaltiroq bo'lib, keyinchalik qattiqlashadi. Ya'ni tugunlarda jarayonni ohiriga borib tvorogsimon massa to'planadi va ohaklanish sodir bo'ladi. Kasallikni bu formasi veterinariya sanitariya ekspertizasi nuqtai nazardan unchalik xavfli emas chunki bu formada sil mikroblari go'shtda oz bo'ladi. Sil kasalligi eksudativ formasida, sil mikroblari bilan zararlangan organ yoki to'qimalarda tugunchalar hosil bo'lmasdan, u joylarda yarim suyuq fibrinli eksudat va limfasit hujayralari yig'iladi. To'qimalarning oralig'iga yig'ilgan eksudat-limfositlar bilan birgalikda och-sariq bo'tqaga aylanadi. Qoramollarda – ko'p hollarda o'pka sili uchraydi. Bunda o'pkada tariq donidan kaptar yoki g'oz tuxumi kattaligidagi tugunchalarni ko'rish mumkun. Go'shtni tekshirishda tuberkulozning tarqoq (generalizatsion) formasida ichki organlarida yoki limfa tugunlarining birida, bir vaqtning o'zida sil tuguni jaroxati aniqlanganda, xar qanday semizlikdagi tana go'shtlari xam texnik utilizatsiya qilinadi. Yuqori va o'rta semizlikdagi tana go'shtlarini tekshirishda ichki organlarning birortasida yoki limfa tugunida sil jaroxati aniqlansa zararlangan organlar utilizatsiya qilinib qolganlari qaynatilib qayta ishlashga yuboriladi. Bu maxsulotlardan faqatgina konserva tayyorlashda foydalaniladi [2].

Kasal sigirning sutida oqsil moddalar (albumin, globulin) ikki barobar oshadi, shuning hisobiga sutning yopishqoqligi ortadi, hamda sutdagi kul va suv ko'payadi. Bir vaqtning o'zida bunday sutning tarkibida yog' miqdori 0,7 % ga, laktoza va titrlanadigan kislotalik darajasi pasayadi. Sut tarkibining bunday o'zgarishi bevosita kasallikning cho'zilishi bilan bog'langan bo'ladi. Kasallikning boshlang'ich davrida sut o'zining xususiyatlarini saqlaydi, lekin keyinchalik sil jarayonning taraqqiyoti bilan sut suyuqlashadi, sutning rangi ko'kimtir-sarg'ish bo'lib, tami sho'r bo'ladi. Agar sil jarohati bevosita sut bezida joylashgan bo'lsa, sutning rangi havo rangiga kiradi. Sut bezlari sil bilan shikastlangan bo'lganda, olingan sutni oziq-ovqat sifatida ishlatish mumkin emas. Sil kasalligi uchrab

turadigan xo'jalikdagi sigirlardan, qo'y va echkidan olingan sut quyidagi tartibda zararsizlantiriladi. Sil kasalligi tugatilayotgan xo'jaliklardagi sigirlardan olinayotgan sut 85<sup>0</sup> da 30 daqiqa zararsizlantirilgandan keyin sut zavodiga jo'natilishi mumkin. Bunday sut sut zavodida qaytadan pasterizatsiya qilingandan keyin to'xtovsiz ishlatiladi. Xo'jaliklardagi sigirlar tuberkulyozga musbat reaksiya ko'rsatgan bo'lsa, ulardan olingan sut qaynatilib xo'jalikning o'zida ishlatiladi. Bunday sutdan faqatgina eritiladigan yog' olish mumkin. Yog'sizlantirilgan sutni xo'jalikning ichida qaynatib, hayvonlar uchun ozuqa sifatida ishlatish mumkin. Klinik belgilari aniq hayvonlardan olingan sut 10 daqiqa qaynatilib, bo'rdoqiga boqilayotgan hayvonlar uchun ozuqa sifatida ishlatilishi mumkin. Sutning tarkibidagi sil kasalligining qo'zg'atuvchilarini mikroskopiya qilish yo'li bilan aniqlash mumkin.

M.M.Dryabinovanning «flatasiya» usuli qo'llanilganda, 50 ml tekshirilayotgan sutga 50 ml 5 % li o'yuvchi kaliy qo'shib aralashtiriladi keyin esa 56-60<sup>0</sup> haroratda 30 daqiqa suv hammomida ushlanadi. So'ngra 0,5-1 ml ksilol va 60-80 ml distillangan suv qo'shib butilkachalarning og'zi rezina tiqinlari bilan yopiladi, keyin esa 10 daqiqa mobaynida chayqatiladi. Shu tartibda tayyorlangan namunalarda og'zi kichik kolbalarga quyilib 45-60 daqiqa tinch holatda uy haroratida qoldiriladi. Bunda mikrobnin tanachalari ksilolga shimilib yuzaga chiqib boshlaydi va kolbachaning yuqori tor joyida halqa hosil qiladi. Mana shu hosil bo'lgan halqadan surtma tayyorlanib, keyin Sil-Nilsen usulida bo'yaladi. Mikroskopda kislotaga chidamli bakteriyalar- qizil, chidamsizlari esa ko'k rangda bo'ladi va sut tarkibida sil tayoqchalari bor deb xulosa qilinadi.

### **Xulosa.**

1. Respublikamiz aholisini ekologik jihatdan toza mahsulotlar bilan ta'minlab berishda, eng avvalo hayvonlardan olinayotgan go'sht va sut mahsulotlarini tekshirilmasdan iste'molga chiqib ketishi sil kasalligini tarqalib ketishi uchun sabab bo'ladi. Shuni xisobga olib mahsulotlardagi sil kasalligi qo'zg'atuvchisini aniqlashning mukammal usulini ishlab chiqish zarur.

2. Tuberkulozga uchragan qoramollardan olinadigan mahsulotlar ya'ni sut va go'sht mahsulotlari yaroqsiz xisoblanib, sil kasalligini yuqtirib olishning asosiy manbaidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Murodov S.M. "Veterinariya sanitariya ekspertizasi. Samarqand 2006.
2. В.А. Макаров.В.П. Фролов, Н.Ф. Шуклин Ветеринарно-санитарная экспертиза с основами технологии и стандартизации продуктов животноводства.
3. Muhitdinovich, D. V., Rayimjonova, N. D., Ogli, N. B. B., & Ogli, N. A. A. (2021). Methods of therapy and prophylaxis of pyroplasmiasis and泰勒iosis of large cattle. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 680-686.

4. Дускулов, В. М., Нарзуллаев, А., & Норқўзиев, Б. (2022). ҚОРАМОЛЛАР СУТИНИНГ КИСЛОТАЛИГИНИ АНИҚЛАШ. *Journal of new century innovations*, 10(5), 42-52.
5. Ibragimov, F. V., Duskulov, V. M., & Tugalov, V. A. (2020). Effectiveness of medicinal plants against bees disease. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 19-22.
6. Дускулов, В. М., & Расулов, У. И. (2017). Новые способы терапии и профилактики пироплазмоза и тейлериоза крупного рогатого скота. In *Общество XXI века: вызовы и перспективы* (pp. 12-18).
7. Katznelson, H., & Jamieson, C. A. (1952). Antibiotics and other chemotherapeutic agents in the control of bee diseases. *Scientific Agriculture*, 32(4), 219-225.
8. Duskulov, V. M., Elmuradov, B., & Meyliev, M. (2018). Highly profitable sector of beekeeping. *Veterinary Medicine*, (12).
9. Гафуров, А. Г., Расулов, У. И., & Дускулов, В. М. (2013). Мер-борьбы пироплазмидозов крс от кровепаразитарных болезней. *Зооветеринария (Ташкент)*, (3), 21.
10. Дускулов, В. М., & Расулов, У. И. (2013). Современные методы терапии и профилактики пироплазмидозов крупного рогатого скота. *Ветеринарна медицина*, (97), 379-380.
11. Ibragimov, F. V., Duskulov, V. M., & Rakhimov, Y. M. (2021). Effect of apiflox preparation against infectious diseases of bees. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 611-614.
12. Ibragimov, F. M., & Bo'ronov, A. N. (2022). TURLI OZUQALAR BERIB BOQILGAN QUYON GO 'SHTINING SIFAT TAXLILI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 102-105.
13. Achilov, O., Ibragimov, F., Boysinova, N., & Abdurakhmanova, N. (2021). Impact of echinococcosis on beef quality in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 260-268.
14. Rasulov, U. I. (2021). Measures to Protect Breeding and Productive Cattle From Parasitic Blood Diseases. *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 22-23
15. Расулов, Ш., Суюнов, Р., Ильесов, З., Исхакова, М., & Расулов, О. (2022). Qoramollar fassiolyozining epizootologik holati va go 'shtning xavfsizligi va sifat ko 'rsatkichlari. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 124-128
16. Хушназаров, А. Х. (2022). ОБЗОР ЛИТЕРАТУРНЫХ ДАННЫХ ПО ХИМИОТЕРАПИИ И ХИМИОПРОФИЛАКТИКИ ЭЙМЕРИОЗА КРОЛИКОВ. *PEDAGOGS jurnali*, 23(2), 83-86
17. Goldstein, B. (2017). A history of video in ELT. The image in English language teaching, 23-31.

18. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. *Международные научные исследования*, (1), 161-163.
19. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педтехнологии изучения латинского языка в медицинских вузах. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (53), 66-71.
20. Исраилова, М. Н. К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули, 103. Цель конференции—знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных (р. 414).
21. Балашов, С. В., Вернер, И. В., & Бышевский, В. И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДИК ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ.
22. Minakov, O. E. E., Andreev, A. A., & Ostroushko, A. P. (2017). The diabetic foot syndrome. *Journal of Experimental and Clinical Surgery*, 10(2), 165-172.
23. Bosiers, M., & Schneider, P. A. (Eds.). (2009). *Critical limb ischemia*. Informa Healthcare.
24. Svetukhin, A. M., Karlov, V. A., IuA, A., Matasov, V. M., & Blatun, L. A. (1990). General principles of the treatment of suppurative wounds and suppurative surgical diseases. *Khirurgiia*, (12), 79-84.
25. Лысова, Д. П., & Лысова, М. П. (2015). Малые ампутации нижних конечностей при синдроме диабетической стопы. In *Бюллетень медицинских интернет-конференций* (Vol. 5, No. 5, p. 853). Общество с ограниченной ответственностью «Наука и инновации».
26. Остроушко, А. П., Глухов, А. А., Андреев, А. А., Маркин, Д. А., & Лаптиёва, А. Ю. Физико-химические основы инновационных методов и технологий в лечении ран мягких тканей. *ДАГЕСТАНСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ*, № 4 (41), 2021, 64.
27. Maxsudovich, K. O. CLINICAL COURSE OF PURULENT SOFT TISSUE DISEASES ON THE BACKGROUND OF DIABETES MELLITUS AND DIFFUSIVE TOXIC GOITER.
28. Рахимов, А. Я., Сагдуллаева, Г. У., & Вахидов, У. Г. (2019). МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ВАРИАЦИИ КУЛЬТИ ГОЛЕНИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ПРИ КРИТИЧЕСКОЙ ИШЕМИИ НИЖНЕЙ КОНЕЧНОСТИ. *Новый день в медицине*, (2), 41-46.
29. Rakhimov, A. Y., Mhsudovich, Q. O., Ulyanovna, S. G., Safoyev, B. B., Zaripovich, L. O., & Rakhimov, A. Y. (2019). Transcutaneous oximetry as the choice of the research for determination of level of amputation of the crus at critical ishemiya of the lower extremities at patients with the diabetes

- mellitus. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(12), 120-125.
30. Mitish, V. A., Safoev, B. B., & Rakhimov, A. Y. (2019). REAMPUTATION THE CULT OF THE CRUS IN PATIENTS WITH DIABETES MELLITUS IN CRITICAL ISCHEMIA OF THE LOWER EXTREMITIES. Central Asian Journal of Pediatrics, 2(1), 230-234.
31. Митиш, В. А., Сафоев, Б. Б., & Рахимов, А. Я. РЕАМПУТАЦИЯ КУЛЬТИ ГОЛЕНИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ПРИ КРИТИЧЕСКОЙ ИШЕМИИ НИЖНИХ КОНЕЧНОСТЕЙ.